Mazkur qarorni qabul qilinishi esa xo'jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ularning faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishga alohida e'tibor qaratish lozimligini taqozo qiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti yuzasidan xulosa berishda auditorlar o'zlarining shaxsiy, haqqoniy va mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilimlariga tayanishlari lozim. Zero, auditorlar tomonidan xo'jalik subyektining moliyaviy hisobotlari to'g'risida berilgan beg'araz xulosadan mulk egalari, investorlar, kreditorlar, banklar aksiyalarni sotib olishda va sotishda, kreditlar va qarzlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda foydalanadilar. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi qonunda aksiyadorlar va boshqa investorlar oldida ma'lum iqtisodiy ishonchga ega bo'lishni istagan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishlari shart qilib qo'yildi. Shu boisdan audit jarayonida ularning moliyaviy salohiyati samaradorligini tahlil qilish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy mustaqil hamda moliyaviy

barqaror faoliyat ko'rsatishlarida ularni oqilona boshqarish, hisob-kitob yuritishni bozor iqtisodiyoti talablariga moslash, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat boyliklaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish, natijada yuqori foyda olib, davlat budjeti oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy salohiyati deb uning faoliyatini to'liq ta'minlaydigan turli manbalardan tarkib topgan moliyaviy mablag'lar majmuasiga aytiladi.

Korxonaning xususiy kapitali ustav, qo'shilgan va zahira sarmoyalar, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va fondlar, kelgusidagi xarajatlar va to'lovlar zahiralari, kelgusi davrlar daromadlaridan iborat bo'ladi. Xususiy kapital – subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zigagina tegishli bo'lgan mablag'larni ifoda etadi.

Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbaini asosini tashkil etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, u korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonanin iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi.

Korxonaning xususiy kapital samaradorligini tahlil qilish avvalambor buxgalteriya balansi passiv 1-bo'limi asosida xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishini va o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Tahlil uchun 1-jadvalni havola qilamiz.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitali 2023-yili 2018-yilga nisbatan 40731566,00 ming so'mga kamaydi. Ustav kapitali 2018-yilda 744441,00 ming so'mni, 2023-yilda esa 8591441,00 ming so'mdan iborat bo'lgan holda 7847000,00 ming so'mga oshadi. Uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi. Bu holatni ijobiy baholash mumkin. Jamiyatda tahlil yillarida qo'shilgan kapitalning tarkibida o'zgarish bo'lmagan holda 2610,00 ming so'mdan iborat bo'lgan.

1-jadval: "Deutsche kabel" AJ xususiy kapitali tarkibini 2018-2023-yillar bo'yicha dinamik tahlili

| Ko'rsatkich | 2018-yil (m.s.) | 2019-yil (m.s.) | 2020-yil (m.s.) | 2021-yil (m.s.) | 2022-yil (m.s.) | 2023-yil (m.s.) | 2023-yil 2018-yilga nisbatan farqi, (+,-) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Xususiy kapital tarkibi: | 104757204,00 | 99909823,00 | 24275963,00 | 119965378,00 | 72348385,0 | 64025638,00 | -40731566,00 |
| ustav kapitali | 744441,00 | 744441,00 | 19157277.00 | 8724441,00 | 8724441,00 | 8591441,00 | +7847000,00 |
| qo'shilgan kapital | 2610,00 | 2610,00 | - | 2610,00 | 2610,00 | 2610,00 | - |
| zaxira kapitali | 88345934,00 | 84802467,00 | 5115080.00 | 86361930,00 | 86445550,0 | 79972216,00 | -8373718,00 |
| taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) | 15664219,00 | 14360305,00 | 3606,00 | 24876397,00 | (-) 22824216,0 | (-) 24540592,00 | -8876373,00 |
| sotib olingan xususiy aksiyalar | - | - | - | - | - | 37,00 | +37,00 |

Manba: "Deutsche kabel" AJning moliyaviy hisoboti ma'lumotlari.

Zahira kapitali esa 2023-yilda asos yilga nisbatan 8373718,00 ming so'mga kamayadi. Taqsimlanmagan foyda 2018-yilda 15664219,00 ming so'm, 2019-yilda 14360305,00 ming so'm, 2020-yilda 3606,00 ming so'm, 2021-yilda esa 24876397,00 ming so'mni tashkil qilgan. Jamiyatda 2022-yilda qoplanmagan zarar 22824216,00 ming so'm, 2018-yilda esa 24540592,00 ming so'mdan iborat bo'lgan. Demak, moliyaviy natija ko'rsatkichlari pasaygan. Tahlil davrida korxona tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati 37,00 ming so'mni tashkil qilgan. Demak, tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, "Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitali hajmi tashqi va ichki omillar ta'siri natijasida o'zgargan.

Endi "Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyatining 2020–2022-hisobot yillari bo'yicha xususiy kapitalning gorizontal va vertikal tahlilini 2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

2-jadval ma'lumotlaridan "Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyati o'z mablag'lari manbalari 2022-yilda 47616993,00 ming so'mga kamaydi. Uning tarkibida hisobot yili davomida asosiy o'rinni zahira kapitali ko'rsatkichi egallagan bo'lib, uning ulushi yil boshida 71,99 foizni, oxirida esa 56,40 foizni tashkil qiladi. 2021-yilda o'z mablag'lari manbalarida ustav kapitalining ulushi 7,27 foizni egallagan bo'lsa, 2022-yilga kelib 56,40 foizdan iborat bo'ldi. Qo'shilgan kapitalning salmog'i esa hisobot davrida sezilarli darajada bo'lmagan bo'lib, 0,002 va 0,004 foizni tashkil qiladi. 2021-yili jamiyat xususiy kapital tarkibida taqsimlanmagan foydaning ulushi 20,74 foizni tashkil qildi. 2022-yilda esa jamiyatda

2-jadval: "Deutsche kabel" AJ xususiy kapitalining gorizontal va vertikal tahlili

| Ko‘rsatkich | 2020-yil | | 2021-yil | | 2022-yil | | 2022-yil 2021-yilga nisbatan farqi (+, -) | | 2022-yil 2021-yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Summa, m.s. | Salmog‘i, % | Summa, m.s. | Salmog‘i, % | Summa, m.s. | Salmog‘i, % | Summa, m.s. | Salmog‘i, % | |
| Xususiy kapital. Undan: | 24275963,00 | 100 | 119965378,00 | 100 | 72348385,00 | 100 | -47616993,00 | - | 60,31 |
| ustav kapitali | 19157277.00 | 78,91 | 8724441,00 | 7,27 | 8724441,00 | 12,06 | - | +4,79 | 100 |
| qo‘shilgan kapital | - | - | 2610,00 | 0,002 | 2610,00 | 0,004 | - | +0,002 | 100 |
| zaxira kapitali | 5115080,00 | 21,07 | 86361930,00 | 71,99 | 86445550,0 | 56,40 | +83620,00 | -15,59 | 100,10 |
| taqsimlanmagan foyda (qoplan-magan zarar) | 3606,00 | 0,0001 | 24876397,00 | 20,74 | (-) 22824216,0 | 31,53 | -2052181,00 | +10,79 | 91,75 |

Manba: “Deutsche kabel” AJning moliyaviy hisoboti ma’lumotlari.

22824216,00 ming so‘m qoplanmagan zarar vujudga kelib, o‘z mablag‘lari manbalarining 31,53 foizidan iborat bo‘ldi. Mablag‘larning ko‘paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o‘rinni egallaydi. Foyda hajmining ko‘payishi eng avvalo Nizom jamg‘armasini to‘ldirishga va boshqa ehtiyot jamg‘armalari yaratilishga olib keladi. Demak, tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, jamiyatda 2021 va 2022-hisobot yili davrida jami mulk manbalarining asosiy qismi zahira kapitali ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. 2020-yilda esa xususiy kapitalning tarkibida asosiy o‘rinni ustav kapitalining ulushi egallagan bo‘lib, 78,91 foizdan iborat. Tahlil yillarida ustav kapitalinig xususiy kapital tarkibidagi ulushida sezilarli o‘zgarish bo‘lgan, ya’ni yillar kesimida 2020-yilda 78,91foiz, 2021-yilda 7,27 foiz va 2022-yilda 12,06 foizni tashkil qiladi. Zahira kapitalining ulushi esa 2015-yilda qolgan yillarga nisbatan past hisoblanib, 21,07 foizdan iboratdir. Taqsimlanmagan foydaning xususiy kapitaldagi ulushi 2020-yilda 0,0001 foizni tashkil qilib, sezilarli darajada past hisoblanadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki jamiyatda taqsimlanmagan foyda hajmi hisobot davrida pasayib borgan va oxiriga kelib 2052181,00 ming so‘m qoplanmagan zarar olingan.

Tahlil jarayonida qarzga olingan mablag‘larni o‘z mablag‘lariga (xususiy kapital) nisbati koeffitsiyentini aniqlash muhim hisoblanadi.

Ushbu koeffitsiyent korxonaning o‘z mablag‘larining har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan qarzga olingan mablag‘larning miqdorini ko‘rsatib, qarzga olingan mablag‘lar summasini o‘z mablag‘lari summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi (1-shakl. 770-satr/480-satr). Ushbu koeffitsiyent “Deutsche kabel” aksiyadorlik jamiyatida yil boshida 152615295,00/119965378,00=1,27 koeffitsiyentni tashkil etdi yoki korxona o‘z mablag‘larining bir so‘miga 1,27 tiyin qarzga olingan mablag‘lar to‘g‘ri keldi. Yil oxirida esa 317697361,00 / 72348385,00=4,39 koeffitsiyent, ya’ni o‘z mablag‘larining bir so‘miga 4,39 tiyin qarzga olingan mablag‘lar to‘g‘ri keldi. Demak, korxonaning qarz mablag‘lariga qaramligi sezilarli oshgan. Bunday holat uning moliyaviy holatini barqarorlik darajasini pasaytiradi. Tahlil obyektida manbalar yil boshida o‘z mablag‘lari hisobiga tashkil qilingan bo‘lsa, yil oxirida qarz manbalari hisobiga ko‘paydi. Bu holat korxonaning moliyaviy mustaqilligining pasayishiga, to‘lov qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishda rentabellik asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, ularni moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishi olgan foydasining to‘g‘ri shakllantirilishi bilan aloqadordir. Ma’lumki, korxonalar mulkining asosiy manbasi xususiy kapital hisoblanadi. Shu boisdan tahlil jarayonida xususiy kapitalning rentabellik darajasini baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Xususiy kapital rentabelligi korxonaning o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larning foydalilik darajasini xarakterlaydi. Ushbu ko‘rsatkichni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz, (3-jadval).

3-jadval: “Deutsche kabel” aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitali rentabelligini tahlil qilish

| № | Ko‘rsatkichlar | 2021-yil | 2022-yil | 2022-yil 2021-yilga nisbatan o‘zgarishi, (+,-) | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Mutloq summa, m.s. | Foizda, % |
| 1. | Sof foyda, m.s | 20154192,00 | 23259690,00 | +3105498,00 | +15,41 |
| 2. | Xususiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati, m.s | 118112382,00 | 96156881,5 | -21955500,5 | -18,59 |
| 3. | Xususiy kapital rentabelligi (1x100:2), % | 17,06 | 33,63 | +16,57 | +97,13 |

Manba: “Deutsche kabel” AJning moliyaviy hisoboti ma’lumotlari.

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, “Deutsche kabel” akiyadorlik jamiyati xususiy kapital summasi

2022-yilda 2021-yilga nisbatan 21955500,5 ming so'mga kamaygan. Xususiy kapital rentabelligi 2022-yilda 33,63 foizni tashkil qilib, 16,57 foizga ko'tarilgan. Bu o'zgarishga ikki omil ta'sir ko'rsatdi.:

1. Sof foyda hajmining o'zgarishi.
2. Xususiy kapital o'rtacha o'rtacha yillik qiymatni o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (4-jadval).

4-jadval: Xususiy kapital rentabellik darajasini omilli tahlili hisob-kitobi

| Hisobni tartib soni | Almashtirishning tartib soni | Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar | | Umumlashgan ko'rsatkich – Xususiy kapital rentabellik darajasi, % | Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-) |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Sof foyda | Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati | | |
| A | B | 1 | 2 | 3(1x100:2) | 4 |
| 1 | - | 20154192,00 | 118112382,00 | 17,06 | - |
| 2 | 1 | 23259690,00 | 118112382,00 | 19,69 | +2,63 |
| 3 | 2 | 23259690,00 | 96156881,5 | 33,63 | +13,94 |

Omillar balansi: +16,57 %

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyatida sof foyda hajmini yil oxirida yil boshiga nisbatan 3105498,00 ming so'mga oshishi natijasida xususiy kapital rentabelligi 2,63 foizga ko'paygan. Xususiy kapitalnin o'rtacha yillik qiymatini 21955500,5ming so'mga kamayishi esa uning rentabelligini 13,94 foizga oshirgan. Shunday qilib, yuqorida hisoblangan ikkita omilning ta'siri: 2,63+ 13,94=+16,57 foiz.

"Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyatida sof foyda hajmi yil oxirida 3105498,00 ming so'mni tashkil qilib, 396011,8 ming so'mga oshgan.

Bu o'zgarishga ikki omil ta'sir ko'rsatdi.:

1. Xususiy kapital o'rtacha yillik hajmini o'zgarishi: 282214,5 x 27,90/100= +78737,8 ming so'm.
2. Xususiy kapital rentabellik darajasini o'zgarishi: 42,4 x 748405,5/100= +317323,9 ming so'm.

Omillar tengligi: 78737,8 +317323,9= +396061,7 ming so'm. Raqamlarni butunlash hisobiga 49,9 ming so'm farq bo'ldi (396011,8-396061,7).

Xususiy kapital rentabelligi darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisob-kitob qilish usulini korxonalarni amaliy faoliyatida qo'llanilishi ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Xususiy kapital samaradorligini tahlil qilishda uning aylanuvchanlik koeffitsiyentlariga baho berish muhim hisoblanadi. Xususiy kapitalni aylanuvchanligi deganda, ularning oqlanuvchanlik darajasi va davri tushuniladi. Aylanuvchanlik koeffitsiyentlarini tahlil uchun quyidagi 5-jadvalni keltiramiz.

5-jadval: "Deutsche kabel" AJ xususiy kapitalining aylanuvchanlik koeffitsiyentlarni tahlili

| Ko'rsatkichlar | 2021-yil | 2022-yil | 2022-yil 2021-yilga nisbatan farqi, (+,-) |
|---|---|---|---|
| 1. Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati, m.s. | 118112382,00 | 96156881,5 | -21955500,5 |
| 2. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum, m.s. | 89577498,00 | 249943612,00 | +160366114,00 |
| 3. Xususiy kapitalni aylanuvchanlik koeffitsiyenti (2:1). | 0,76 | 2,60 | +1,84 |
| 4. Xususiy kapitalni aylanish davri, kunda (1x360:2) | 473,68 | 138,50 | -335,18 |
| 5. Xususiy kapitalni aylanish salmog'i koeffitsiyenti (1/2) | 1,32 | 0,38 | -0,94 |

5-jadvaldan ko'rinishicha, "Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitalning aylanuvchanlik koeffitsiyenti yil boshida 0,76 ni, oxirida esa 2,60 ni tashkil qilgan holda 1,84 koeffitsiyentga oshgan. Xususiy kapitalni aylanish salmog'i koeffitsiyenti esa 0,94 koeffitsiyentga pasaygan. Jamiyatda xususiy kapitalning aylanish davri yil oxirida 138,50 kunni tashkil qilgan holda, 335,18 kunga kamaygan. Endi 5-jadval ma'lumotlari asosida xususiy kapitalni aylanish kunini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar hisob-kitobini aniqlaymiz, (6-jadval).

6 -jadval: Xususiy kapitalni aylanish kunini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar hisob-kitobi

| Hisobni tartib soni | Almashtirishning tartib soni | Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar | | Umumlashgan ko'rsatkich – Xususiy kapiralni aylanish kuni | Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-) |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum | Xususiy kapitalni o'rtacha yillik qoldig'i | | |
| A | B | 1 | 2 | 3 (2x360:1) | 4 |
| 1 | - | 89577498,00 | 118112382,00 | 473,68 | - |
| 2 | 1 | 249943612,00 | 118112382,00 | 170,12 | -303,56 |
| 3 | 2 | 249943612,00 | 96156881,5 | 138,50 | -31,62 |

Omillar balansi: -335,18 kun

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, "Deutsche kabel" akiyadorlik jamiyatida xususiy kapitalni aylanish kuni 335,18 kunga tezlashgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lgan:

1. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining 160366114,00 ming so'mga oshishi, xususiy kapitalning aylanish kunini 303,56 kunga tezlashtirgan.
2. Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatining 21955500,5 ming so'mga kamayishi natijasida aylanish kuni 31,62 kunga tezlashgan.

Shunday qilib, barcha omillar ta'siri natijaning umumiy o'zgarishiga teng: (-303,56)+(-31,62)=-335,18 kun.

Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi o'zgarishini endogen omil sifatida olgan holda uning asosiy omil (resurs)lar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ko'p omilli tahlil amalga oshirildi. Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini funksiyaning yuqori cho'qqisi, ya'ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarini soha mutaxassislari ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi (7-jadval):

$X_1$ – Investitsiya hajmi;

$X_2$ – Xususiy kapitalning qiymati;

$X_3$ – Xususiy kapitalni aylanish davri.

Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati ko'riladigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida kapital, resurslar, kapitalni aylanish davri orqali muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalovchi omil ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish modeli ko'rinishidagi modelga yaqin bo'lgan bog'lanishga ega bo'ladi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

7-jadval: Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari[1]

| Yillar | Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum (mln. so'm), Y | Investitsiya hajmi, (mln. so'm), $X_1$ | Xususiy kapitalning qiymati, (mln. so'm), $X_2$ | Xususiy kapitalni aylanish davri, kun, $X_3$ |
|---|---|---|---|---|
| 2014 | 20154,2 | 117,5 | 118112,4 | 124,7 |
| 2015 | 23259,7 | 174,6 | 96156,9 | 138,5 |
| 2016 | 23976,6 | 191,1 | 109647,9 | 157,4 |
| 2017 | 24319,1 | 275,3 | 115249,4 | 153,8 |
| 2018 | 27093,3 | 269,4 | 122071,3 | 149,6 |
| 2019 | 19018,1 | 114,6 | 96259,4 | 118,7 |
| 2020 | 28641,9 | 291,7 | 127217,2 | 151,1 |
| 2021 | 30812,7 | 361,4 | 137089,8 | 159,7 |
| 2022 | 20154,2 | 117,5 | 118112,4 | 124,7 |

Yuqoridagi jadvalda ajratib olingan natijaviy va ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining o'lchov birligi bir xil emasligi, ya'ni omil ko'rsatkichlarining bir jinsli emasligi sababli asosiy trend modelini chiziqli logarifmik bog'lanish ko'rinishida aniqlab olamiz. Buning uchun omil ko'rsatkichlarining barchasini natural logarifmik ko'rsatkichlarga keltirib olinadi (8-jadval).

8-jadval: Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil

1 O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ko'rsatkichlarining logarifmik qiymati[2]

| t | LnY | $LnX_1$ | $LnX_2$ | $LnX_3$ |
|---|---|---|---|---|
| 2014 | 9,9 | 4,8 | 11,7 | 4,8 |
| 2015 | 10,1 | 5,2 | 11,5 | 4,9 |
| 2016 | 10,1 | 5,3 | 11,6 | 5,1 |
| 2017 | 10,1 | 5,6 | 11,7 | 5,0 |
| 2018 | 10,2 | 5,6 | 11,7 | 5,0 |
| 2019 | 9,9 | 4,7 | 11,5 | 4,8 |
| 2020 | 10,3 | 5,7 | 11,8 | 5,0 |
| 2021 | 10,3 | 5,9 | 11,8 | 5,1 |
| 2022 | 9,9 | 4,8 | 11,7 | 4,8 |

Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko'rsatkichlari orqali baholangan. Regression tahlil natijalaridan ko'rilayotgan holat uchun regression modelning koeffitsiyentlarini ajratib olgan holda trendning chiziqli logarifmik modelini shakllantirib olinadi.

Aniqlangan ma'lumotlardan foydalangan holda mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi

$$LnY = 0{,}381 \cdot LnX_1 - 0{,}109LnX_2 - 0{,}056 \cdot LnX_3 + 9{,}64 \quad (1)$$

regressiya tenglamasi tuzildi.

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potensirlansa, mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko'rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

$$Y_1 = \frac{X_1{}^{0,381} \cdot e^{9,64}}{X_2{}^{0,109} \cdot X_3{}^{0,056}} \quad (2)$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2023-2027-yillarda mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi o'zgarishining istiqboldagi ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro'yxati keltirildi (9-jadval).

9-jadval: Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari hamda 2023-2027-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari[3]

| Ko'rsatkichlar va ularning omilli modellari | Prognoz ko'rsatkichlari | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2023 | 2024 | 2025 | 2026 | 2027 |
| Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi, mln. so'm $Y_1 = \frac{X_1{}^{0,979} \cdot X_2{}^{0,057} \cdot X_4{}^{0,309} \cdot e^{1,52}}{X_3^{0,007} \cdot X_5{}^{0,095}}$ | 26220,1 | 26523,2 | 26899,0 | 27168,2 | 27467,1 |
| Investitsiya hajmi, mln. so'm ($X_1$) $x_1 = 10{,}015 \times t + 162{,}49$ | 262,6 | 272,7 | 282,7 | 292,7 | 302,7 |
| Xususiy kapitalning qiymati, mln. so'm ($X_2$) $x_2 = 2315{,}78 \times t + 103967{,}4$ | 127125,2 | 129441 | 131756,8 | 134072,5 | 136388,3 |
| Xususiy kapitalni aylanish davri, kun ($X_3$) $x_3 = 0{,}265 \times t + 140{,}69$ | 143,3 | 143,6 | 143,9 | 144,1 | 144,4 |

Ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining o'rta muddatda, ya'ni 2014-2027-yillarda o'zgarishi qiymatlarini grafikda ko'rinishi ifodalandi (9-jadval).

Yuqoridagi omilli bog'lanishlar asosida biz tomonimizdan Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum

2 Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.
3 Тадқиқот натижалари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

hajmining ortishida eng muhim deb topilgan koʻrsatkichlarning natijaviy koʻrsatkichi hisoblangan mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmiga omillar taʼsiri asosidagi rivojlanish ssenariysi ishlab chiqildi. Aniqlangan trendlardan foydalanish sohaga kiritilayotgan resurs hajmini toʻgʻri taqsimlagan holda resurs birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi.

Koʻp omilli bogʻlanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda soha faoliyati asosiy koʻrsatkichlarining tanlangan omillar taʼsirida maʼlum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda oʻzgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining oʻzgarishi ham 3 ta asosiy omil taʼsirida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlarni aniqlashda qoʻl keladi.

Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida aniqlangan ekonometrik modelning ahamiyati va uning parametrlari sifatini baholamasdan turib, modeldan amaliyotda foydalanish katta xatoliklarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shuni eʼtiborga olgan holda, mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining oʻzgarish modelini uning ahamiyati va model parametrlarining sifatini baholaymiz.

Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash koʻrsatkichlari orqali baholangan (10-jadval).

10-jadval: Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi boʻyicha tanlangan omillarning bogʻlanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy koʻrsatkichlari[4]

| Dependent Variable: mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi, LnY | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Method: Least Squares | | | | |
| Date: 04/09/23 Time: 16:21 | | | | |
| Sample: 2014 2022 | | | | |
| Included observations: 9 | | | | |
| Variable | Coefficient | Std. Error | t-Statistic | Prob. |
| Oʻrtacha bir aholiga mebel ishlab chiqarish hajmi, LnX1 | 0.380725 | 0.128832 | 7.606553 | 0.0003 |
| Mebel mahsulotlarini sotish hajmi, LnX2 | 0.057451 | 0.143318 | 0.400866 | 0.7024 |
| Mebel sanoati korxonalarining oʻrtacha risk koeffitsiyenti, LnX3 | -0.057451 | 0.209935 | -0.033402 | 0.9744 |
| Tasodifiy omillar umumiy taʼsiri, ε | 1.515755 | 1.913927 | 0.791961 | 0.4585 |
| R-squared | 0.997969 | Mean dependent var | | 6.875000 |
| Adjusted R-squared | 0.996277 | S.D. dependent var | | 0.991899 |
| S.E. of regression | 0.060523 | Akaike info criterion | | -2.464731 |
| Sum squared resid | 0.021978 | Schwarz criterion | | -2.222277 |
| Log likelihood | 20.78838 | Hannan-Quinn criter. | | -2.554495 |
| F-statistic | 589.7018 | Durbin-Watson stat | | 2.790174 |
| Prob(F-statistic) | 0.000125 | | | |

Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning taʼsir etuvchi omillar bilan koʻplikdagi korrelyatsiyasi r=0,9979 ga, determinatsiya koeffitsiyenti R2=0,9963 ga teng ekanligini koʻrsatmoqda. Bu esa taʼsir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning yuqori zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan koʻrsatkichlar bilan real koʻrsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bogʻlanganligini koʻrsatadi.

Jadvalda koʻrsatilgan koʻrsatkichlar qiymatidan foydalangan holda tuzilgan ekonometrik modelning ahamiyati va parametrlari sifati baholanadi. Aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezoni qiymati 589,7 ga teng boʻlib, uning ahamiyati 0,000125 ga teng. Bundan koʻrinib turibdiki, tuzilgan trend modelni ahamiyati jihatidan amaliyotda qoʻllash mumkin.

Model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezoni (-2,46), Shvars mezoni (-2,22) va Xannan-Kuin mezoni (-2,55) orqali baholangan. Ushbu mezonlar qiymati ham trend modelini amaliyotda qoʻllash mumkinligini koʻrsatadi.

Tuzilgan ekonometrik modelda avtokorrelyatsiya yoki multikolleniarlik mavjudligini aniqlash imkonini beruvchi Darbin-Uotson (DW) mezoni 2,79 ga teng boʻlib, optimal chegara 2,0 atrofida ekanligi hisobga olinsa, modelda avtokorrelyatsiya darajasi deyarli mavjud emasligini koʻrish mumkin.

Yuqoridagi tahliliy maʼlumotlar hamda koʻrsatkichlar qiymatlarini baholash asosida mebel sanoati korxo-

4 Муаллифлар томонидан EViews10 дастурида ҳисоблаш асосида ишлаб чиқилган.

nalari faoliyatining rivojlanishida eng muhim deb topilgan Mebel sanoatidan olinadigan daromadlar hajmi va unga omillar ta'sirini hisobga olgan quyidagi trend modelini mebel sanoatini kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish jarayonida qo'llash mumkin.

Eviews 10 dasturi asosida ishlab chiqilgan model va prognoz ko'rsatkichlar sanoatning jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlarini, jumladan mebel sanoatini kelgusi qisqa va o'rta muddatlar oralig'ida rivojlantirish rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish yo'nalishida muqobil ssenariylarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Sohada mebel sanoati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari ushbu ishlab chiqilgan modelda foydalanilgan natijaviy omil va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlaridan o'zlarining reja va dasturlarini shakllantirishda foydalanilsa, prognozlashning belgilangan mezonlari asosida tekshirish natijalariga asoslanib yuqori samara berishi aniqlandi.

Tuzilgan trend modellaridan foydalanishda mebel sanoati bozorida faoliyat olib borayotgan korxonalarda faoliyatni rivojlantirish nuqtayi nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo'shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash ko'rsatilayotgan mebel sanoatidan olinadigan daromadlar hajmi samaradorligini optimal ta'minlash imkonini beradi hamda mebel sanoati korxonalari faoliyatining muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorlik ko'rsatkichlarni oshirishda moliyaviy salohiyatga baho berish asosiy masalalardan biri bo'lib, u hamma vaqt korxona rahbari, tahlilchilar va auditorlarning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Mazkur ilmiy maqolada "Deutschekabel" aksiyadorlik jamiyati moliyaviy salohiyati tarkibi amaliy ma'lumotlarini qo'llagan holda tadqiq qilingan hamda amaliy tavsiyalar berilgan. Korxonada hisobot yili davomida balans passivida majburiyatlarning ulushi asosiy o'rinni egallagan. Bu holni salbiy deb baholash mumkin. Demak, jamiyatda qarz mablag'lariga ehtiyoj yuzaga kelgan. Shu bois tahlil jarayonida o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'larning nisbati koeffitsiyenti hisob-kitob qilindi. "Deutschekabel" aksiyadorlik jamiyatida yil oxirida o'z mablag'larining har so'miga 4,39 tiyin qarzga olingan mablag'lar to'g'ri keldi. Bunday holat uning moliyaviy holatini barqarorlik darajasini pasaytirgan, to'lov qobiliyatining yomonlashishiga olib kelgan.

Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbaini asosini tashkil etib, u korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonanin iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi. Shu boisdan "Deutsche kabel" aksiyadorlik jamiyati xususiy kapitali bilan bog'liq bo'lgan aylanish koeffitsiyentlari tahlil qilinib, aylanish davrini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi, mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum va xususiy kapital qiymati o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsiya usulida hisoblandi. Shu bilan birga xususiy kapitalning rentabellik darajasini omilli tahlil qilish usuli ham tavsiya qilindi.

Korxonalarning moliyaviy salohiyatidan samarali foydalanishni baholash natijasida xususiy kapital va majburiyatlarni maqsadli boshqarishni yo'lga qo'yish, pul va likvid mablag'larni aylanuvchanligini tezlashtirish hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha amaliy tadbirlarni belgilash imkoni bo'ladi. Zero, strategik boshqaruv korxonaning moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layoqatliligini aniqlashda ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqola natijalari bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- korxona moliyaviy salohiyati barqarorligini ta'minlash uchun xususiy kapital hajmini oshirish, undan samarali foydalanish lozim. Xususiy kapitalni ko'paytirish uchun, eng avvalo, korxona foydasini oshirib borish kerak;
- korxonalarning juda ko'p xarajatlarini banklardan olingan qarz uchun to'lanadigan foiz va transport xarajati tashkil etadi. Shu tufayli korxona imkoni boricha oborotdagi mablag'larda xususiy kapitalning ulushini ko'paytirishi va nihoyat barcha aylanma mablag'larini o'zining hisobidan qoplashi lozim;
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri korxona debitor qarzlari va joriy kreditorlik majburiyatlarini ko'paytirmaslik chorasini ko'rishdir. Majburiyatlar hajmining ko'pligi korxona moliyaviy holatini yomonlishishiga olib keladi. To'lov majburiyatlarini bajarmaslik ularni iqtisodiy nochorlik holatiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tavsiyalarni korxonaning amaliy faoliyatida qo'llanishi ularning moliyaviy holatiga aniq tashxis qo'yish, xususiy kapital samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash, bankrotlik holatini oldini olish, moliyaviy salohiyatini ko'tarish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi deb hisoblaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF 4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori. 2020-yil 24-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son qarori, 2018-yil 19-sentabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1013-son qarori, 2018-yil 14-dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-son qarori, 2015-yil 28-iyul.
6. Донцова Л.В., Никифирова Н.А. Анализ бухгалтерской (финансовой) отчетности. Практикум. –М.: Дело и сервис, 2018.
7. Nusinov V. Estimating the Ukrainian companies’ financial potential and the probability of forced / V. Nusinov, L. Burkova, N. Shura // Investment Management and Financial Innovations. – Sumy, 2020. – Vol. 17, issue. №2. – P.
8. Raximov M.Yu va boshqalar. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2020.
9. Tojiboyeva Sh.A. Moliyaviy tahlil-2. Darslik. –T.: Innovatsion rivojlanish, 2021.
10. Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holati tahlili. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2020.
11. Tadjibayeva Sh.A., Khodjayeva M.X. Main Aspect of the Analysis of Business Activity in The Conditions of Economic Devolopment. Trans Asian Journal of Marketing end Management Recearch (TAJMMR). Vol 9, Issue 10, Oktober 2020.https://tarj.in. ISSN: 2279-0667. Impact Factor: SJIF 2020 = 7.209.
12. Tkachenko V.V. Financial potential: strategic management in conditions of economic risk : monograph / V.V.Tkachenko, I. V. Tkachenko, P. Puzyrova. – Kyiv: Foliant, 2020. – 176 p.https://er.knutd.edu.ua/handle/123456789/16044 26–39. – References: p. 37–39.http://ds.knu.edu.ua/jspui/handle/123456789/2755.
13. Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Sano-standart, 2017.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.